

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




SHARQ TILSHUNOSLIGI TARIXI

FANINING O'QUV DASTURI


Bilim sohasi: 200 000-San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi: 230 000-Tillar
Mutaxassislik: 70230101 –Lingvistika (sharq tillari bo'yicha)

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti direktori  Mirzaxmedova X.V.

Eronshunoslik va afg'onshunoslik oliy maktabi
boshlig'i:

 Nuriddinov N. N.

ARM boshlig'i

 Yuldasheva M.M.

Fan/modul kodi SHTT1204	O'quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sharq tilshunosligi tarixi	48	72	120
2.	<p>I. Fanning mazmuni: Fanning maqsadi: sharq tillari bazasida bakalavriaturani tamomlagan, xususan, lingvistika va mumtoz filologiya mutaxassisligiga tayyorlanayotgan magistrantlarni o'zlari o'rganayotgan tillari tarixi, ularning taraqqiyotiga xos bosqichlar, qonuniyatlar, hozirda "o'lik" holga kelgan tillarning yodgorliklari bilan tanishish, matnlar ustida ishlash haqida dastlabki tasavvur, bilim, ko'nikmalarga yo'naltirishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi: sug'd tilining Markaziy Osiyo turkiy tilli va eroniyzabon sinkret muhitda, xalqaro siyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy munosabatlarda tutgan o'rni, sotsiolingvistik maqomi haqida ma'lumot berish; sug'd tilining yozma yodgorliklari tavsifi, ularda amal qilgan yozuvlar bilan tanishtirish; sug'd tili fonetikasining tafsiloti va nutq tovushlarining fonologik vaziyatlardagi funksional xususiyatlarini ta'riflash va amalda matnlar orqali tushuntirish; sug'd tili leksikasi, grammatikasi haqida tafsiliy ma'lumotlar berish.</p> <p>Xorij tajribasiga muvofiqi: Mazkur fan dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-martdagi "Oliy ta'limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 87-sonli buyrug'iga muvofiq, xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi Ohio University (151) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p>https://nesa.osu.edu/sites/default/files/Persian</p>			

3.	<p>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I.Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu. Ilk o'rta asrlar sharq tillarining nazariy masalalri(sug'd tili) fanining maqsad va vazifalari. "Sharq tilshunosligi tarixi" fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. Avesto tili va o'rta fors tili, ularning til rivojidadagi o'rni. Fanning nazariy-metodologik</p>
-----------	---

manbalari haqida umumiy ma'lumotlar. Avesto. Shakllanish tarixi, yozuvi, matnlaridan yetib kelgani, o'rganilishi tarixiga oid qisqacha ma'lumot. Avesto tilining eroniy tillar orasida tutgan o'rni. O'rganishning zarurligi va ahamiyati.

2- mavzu. Sug'd tili matnlarida amal qilgan yozuvlar, ularning nutq-tovush munosabatlari, grafik xususiyatlaari, yodgorliklari tafsiloti
"milliy sug'd yozuvi" tushunchasiga ta'rif beriladi va uning yodgorliklari haqida ma'lumotlar beriladi. Suryoniy sug'diy, moniy sug'diysi, bu yozuvlarning sug'd tili talablariga muvofiq funksional xususiyatlaridagi moslashuv masalasi o'rganiladi.

3-mavzu. Sug'd tilining fonetkasi va fonologiyasi

Sug'd tili unli tovushlari. Cho'ziq va qisqalik bo'yicha juftliklar hamda tarixiy diftonglarning sug'd tilida cho'ziq \bar{o} va \bar{e} ga aylanishi

Undosh tovushlar soni 25 ta. Ularning tasnifi. Fonologik holatlardagi amalda ifodalashi mumkin bo'lgan tovushlar. Harf tizimidagi Q, H, Itqi (T), '(a'yn) harflarining funksiyalari amalda nolga(\emptyset) tengligi. Biroq ularning geterografik birliklarda amal qilish qoidalari. Geterografik yozuv haqida ma'lumot. Sug'd yozuvi matnlarining geterografik belgilari doirasi.

4-mavzu. Sug'd tilining grammatik tuzilishi.

Qadimgi til bosqichidagi flektivlikdan tipologik siljish orqali analitik til holatiga kelishi. So'z yasalishi. Grammatik aloqa vositalari predlog va poseleloglarga tayanishi. Sug'd tilida ritmik qonun masalasi. So'zlarning ma'no-grammatik guruhlari va ularning asoslanishi. Ot turkumi: bu tushunchaning kengligi. Fe'l turkumi tushunchasi.

5-mavzu. So'g'd tilida so'z turkumlari

So'g'd tilida sifat, son, olmosh turkumlarining ma'no grammatik xususiyatlari. Fe'ning shaxs, son, zamon, mayl, nisbat va b. kategoriyalari. Sifatdosh va ravishdosh

6-mavzu. Sug'd tilida yordamchi so'zlar

Yordamchi so'zlarning grammatik vazifalari. Predlog, poseleloglar, yuklama va boshqalar, ularning grammatik munosabatlarni uyushtirishdagi roli.

7-mavzu. Sug'd tilining sintaksisi va matnlarda bayon uslubiga xos xususiyatlar.

Mahkamachiilik va diplomatik uslub haqida. Sug'd yozma yodgorliklarida janr xususiyatlari. Epistolyariy va undan ma'muriy yozishmalarda foydalanishi.

III. AMALIY MASHG'ULOTLAR BO'YICHA KO'RSATMA VA TAVSIYALAR

Sug'd tili amaliy mashg'ulotlari sug'd yozuvini o'rganishdan boshlanadi. Kichik matnlar, yoki katta matnlarning parchalari asosida harflarni farqlash, so'zlarni tanish va asta sug'dcha matnlarda fonetik biorliklarning harakatiga e'tibor beriladi, nazariy darslarda berilgan ima'lumotlarni mustahkamlab boriladi. Matn ustidagi ishlar leksik birliklarga, (lug'at tuzish amaliyoti orqali), so'zlarning morfologik tuzilishiga, so'ngra grammatik munosabatlarga o'tiladi.

Mavzular:

1. Sug'd tili haqida umumiy ma'lumot.
2. Sug'd tili matnlarining yozuvlari.
3. Sug'd tili fonetikasi: unlilar, undosh tovushlar.
4. Morfologiya. Sug'd tilida so'z tarkibi va yasalish usullari.
5. Sug'd tilida so'zlarning ma'no-grammatik guruhlarini. Ot turkumi.
6. Sug'd tilida fe'l va uning grammatik kategoriyalari: shaxs, son, zamon, mayl, nisbat ma'nolarining ifodalanishi.
7. Ravishdosh va sifatdosh.
8. Sug'd tilida yordamchi so'zlar va ularning grammatik munosabatlardagi o'rni.

IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR

Sug'd tilining tarixiy matnlarda saqlangan "o'lik" til maqomidagi Sotsiolingvistik maqomini ta'riflash;

Sug'd tilining yozuv tizimlarini ("milliy" sug'd, moniycha, suryoniy) harf-tovush munosabatlari bo'yicha tahlil etish;

Sug'd matnlari tilining arxaik orfografiyasi va so'zlashuv tili stilidagi matnlari haqida qiyosiy materiallar to'plash(I.Gershevich, M. Ishoqovlarning monografiyalaridagi misollar asosida);

Sug'd tili fonetikasi. Unli va undosh tovushlar tizimi. Buddaviy, moniychilik, xristian diniy mazmundagi matnlar til xususiyatlaridagi farqlarni izohlash;

Sug'd tili grammatikasi. Morfologik xususiyatlarning umumiy ta'rifi va matnlar asosida so'z tarkibi, yasalish xususiyatlari: prefiksial postfiksial, kmpozit va b.;

Sug'd tilida so'z turkumlari. Ot turkumi: ot, sifat, son, olmosh;

Sug'd tilida fe'l. Shaxs, son, zamon, mayl, nisbat kategoriyalari;

Sug'd tilida ravishdosh va sifatdosh;

Sug'd tilida yordamchi so'zlar;

Sug'd tili sintaksisi masalasi.

Mustaqil ta'limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISda ilova qilinadi.

V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)

Talaba bilishi kerak:

Magistrant bu kursni o'qib o'rganishi natijasida ilk o'rta asrlarda o'zining har tomonlama takomil topgan yozma uslubiga ega bo'lgan, biroq tojik-fors va turkiy tillar o'ramida o'zining tarixiy mavqeini yo'qota borib, nihoyat, mil. 11 asrlarda asta amaliyot doirasidan chiqib unutilishga mahkum bo'lgan tarixiy sug'd tili haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ladilar;

Magistrant bu kursni o'qib o'rganishi natijasida ilk o'rta asrlarda o'zining har tomonlama takomil topgan yozma uslubiga ega bo'lgan, biroq tojik-fors va turkiy tillar o'ramida o'zining tarixiy mavqeini yo'qota borib, nihoyat, mil. 11 asrlarda asta amaliyot doirasidan chiqib unutilishga mahkum bo'lgan

	tarixiy sug'd tili haqida batafsil ma'lumotga ega bo'ladilar.;
4.	<p style="text-align: center;">VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • rolli o'yinlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni tayyorlash; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar va hokazolar.
5.	<p style="text-align: center;">VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.</p>
6.	<p style="text-align: center;">VII. ASOSIY VA QO'SHIMCHA O'QUV ADABIYOTLAR HAMDA AXBOROT MANBALARI</p> <p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. B.G'oyibov, G'. Boboyorov. Sug'd tili. Samarqand. – 2018. -76 b. 2. Исхаков М. Глагол в согдийском языке.Ташкент: Фан, 1977. -214 с. 3. Исҳоқов М. Суғд ёзувининг шаклланиши ва таракқиёти. Ўлмас обидалар. Тошкент. Фан, 1989. –Б .3-146. 4. Исхаков М.М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. Древность,раннеесредневековье. Ташкент: УМЭД, 2008. 5. Is'hoqov M.M. Avesto tili. O'quv qo'llanma. Elektron ishlanma. 2009 6.Is'hoqov M.M. So'g'diy til tarixi. O'quv qo'llanma. T.: 2024 <p style="text-align: center;">Qo'shimcha adabiyotlar</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Sh.M. Mirziyoyev. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. - Toshkent: O'zbekiston, 2024. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023 3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild.- Toshkent: O'zbekiston, 2023. 4. Mirziyoyev Sh.M. Inson qadri, uning huquq va erkinliklari, qonuniy manfaatlar uchun. –Toshkent: O'zbekiston, 2022. 5. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: O'zbekiston, 2022. 6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 10-fevraldagi "Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-126-son qaroriMirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. - Toshkent: O'zbekiston, 2023.

7. Основы иранского языкознания. Древнеиранские языки. М.: 1979. Среднеиранские языки. М.: 1981;.
 8. Боголюбов М.Н. Авестийские тексты // В сборнике в честь 90-летия М.Н. Боголюбова. – М.: ГРВЛ, 2001.
 9. Лившиц В.А. Парфянская ойомастика. – М.: ГРВЛ, 2010.
 10. Лившиц В.А. Согдийская эпиграфика Средней Азии и Семиречья. СПб. – 2008.
 11. Расторгуева В.С. Среднеперсидский язык. – М.: Наука, 1966.
 12. Расторгуева В.С., Эдельман Д.И. Опыт историко-типологического исследования иранских языков. Том I. Фонология. Эволюция морфологического типа. – М.: Наука, 1975.
- Scopusdan maqolalar

Scopusdan maqolalar

1. Sharifi L. A Modern Word Formation Process in Middle Persian: Abbreviated Forms // Procedia - Social and Behavioral Sciences, Volume 136, 2014, Pages 308-312. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2014.05.334>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S1877042814038154>) Lacey Okonski, Journal of Pragmatics, Volume 211, 2023, Pages 27-30, ISSN 0378-2166, <https://doi.org/10.1016/j.pragma.2023.03.012>.
2. Skjærvø P.O. Iran: Scripts, Old Persian, Aramaic, Avestan // Encyclopedia of Language & Linguistics (Second Edition), Elsevier, 2006, Pages 12-16. <https://doi.org/10.1016/B0-08-044854-2/04545-4>. (<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/B0080448542045454>)

Axborot manbalari

1. www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
2. www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
3. <https://ibratfarzandlari.uz/> Ibrat farzandlari platformasi
4. www.mt.tsuos.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.persionbook.org
7. www.irandoc.ac.ir
8. <https://www.hamshahrionline.ir/>
9. <https://saadifoundation.ir/>

7. Fanning o'quv dasturi "Eronshunoslik va afg'onshunoslik" oliy maktabida ishlab chiqilgan va 2025-yil "20" 06 dagi 20-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.
Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil "28" 09 dagi 11-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.
8. **Fan /modul uchun mas'ul:**
M.M.Is'hoqov – TDSHU, "Markaziy Osiyo xalqlari va tarixi" kafedrası professori, tar.f.d.professor.

9.

Taqrizchilar :

B.G'oyibov –SamDU “O‘zbekiston tarixi” kafedrası mudiri, tar.f.doktori t.f.d.

A.Ataxodjayev - O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bo‘lim mudiri,
Tar.f.doktori

24